

G'ARBIY YEVROPADA ROMANTIZM ADABIYOTIDA SHATOBRIAN ASARLARIDA MUHABBAT KONSEPTINING TUTGAN O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

F.Anorbayeva

SamDU, o'qituvchisi

(anorbayeva1992@mail.ru)

O'zining serqirra ijodi bilan XIX asr fransuz adabiyotida romantizm oqimining ko'zga ko'ringan vakillaridan biriga aylangan François René de Chateaubriand 1768-yil 1-fevralda Fransiyaning Sent Malo shahrida tug'ilib, 1848-yilda Parij shahrida vafot etgan. Yozuvchi hamda kuchli davlat arbobi René de Shatobriand Restavratsiya davrida tashqi ishlar vaziri lavozimida faoliyat ko'rsatgan, shu bilan bir qatorda adabiyot sohasida ham unung o'lmas ijod namunalari yosh avlodga meros bo'lib qoldi. Adib bu asarlari orqali yuksak cho'qqilarni zabt etgan. Uni nafaqat Fransiyada romantizm yonlashidagi yozuvchi balki umumiy adabiyot sohasiga endigina o'zining ilk qadamini qo'ygan ijod ahlining uztozi desak adashmagan bo'lamiz. Shogirdlaridan biri Victor Gugo u haqida shunday degan edi: «Men Shatobriand bo'lishni hohlayman, yoki hech kim»[1]. Aynan Victor Gugoning Shatobriand haqida yuqoridagi fikri ham bu insonning shu qadar ildizlagan ijodi va u yaratgan shoh asarlariga bo'lgan ehtiromi edi. Shatobriand turli janrlarda jumladan: roman, esse, hotira, avtobiografik janrlarda ijod qilgan. 1801-yilda *Atala*, 1802-yili René, 1848-yilda *Memoirs d'autre-tombe* (Qabr ortidan hotira) asarida Shatobriand hayoti epizodlar orqali hikoya qilingan, 1844-yilda *Vie de Rancé* (Ranse hayoti), 1809 yilda *Les Mortyrs*, *Le Normant* apologik asarlari nashr etilgan. Undan tashqari yozuvchi Iyerosalimga sayohat qissasi yoritilgan „*Itinéraire de Paris*“ asari hamda, *Genie de Christienne* ya'ni Xristianlik daxosi kabi asarlari ham muxlislar qalbidan joy egallagan. 1801-yilda yaratilgan *Atala* asarini Shatobriandning Amerikaga qilgan sayohatlari haqida hikoya qiluvchi asar desak adashmaymiz. Ushbu asar Xristianlik daxosi asarining tarkibiga kuruvchi romanlardan biri hisoblanadi. Bu asar tez orada yozuvchiga katta muvaffaqiyat keltirdi. *Atala* François René de Chateaubriandning ishqni, muhabbatni ta'svirlagan va barcha voqealarni din bilan bog'lab ko'rsatgan asari hisoblanadi.

Misalan: *«Je crus que c'etoit la Vierge ges dernières amours, cette vierge qu'on envoie au prisonnier de guerre, pour enchanter sa tombe» [1]*

mazmuni:« men bu bokira qiz urishda asir olingan maxbusining ko'nglini olish uchun yuborilgan haloskor sifatida so'nib borayotgan ishqni Bibi maryam timsolida ko'rib turar edim,» keltirilgan parchada qizning bokiraligini ko'rsatish uchun Bibi Mriyam obraziga ishora qilyapdi. Aynan o'sha zamonni ko'z o'ngingizga keltirgan bo'lsangiz. Fransuz tilida *vierge, la Vierge, La Sainte Vierge, la Vierge Marie* so'zlari *Bibi Mariyam* yoki *Bibi Mariyam* tasvirlangan rasmi ifodalanmoqda.[2]

Yuqoridagi berilgan misol orqali Bibi Mariyam obrazi ifodalanayotgan bo'lsa, *cette vierge -bokira qiz* so'zi orqali esa «*Atala*» asarning bosh qahramoni nazarda tutilmoqda. Yozuvchining «*Atala*» povestida yosh xindu qizi *Atala* va dushman qabilasi vakili bo'lmish, Shaktasni asirlikdan ozod qilib u bilan o'rmonlar tomon qochib ketgan yosh yigitning otashin muhabbati tarannum etiladi. Bu yerda qizning ko'zlarida muhabbatni, yuzlarida butun bir

go'zallikni Bibi Maryamga o'xshatishi natijasida metofaradan simbolizmdan foydalanilgan. Misol: *la fille du Sechem prononca ces paroles! Beau prisonnier, j'ai follement cede à ton desir: mais ou nous conduire cette passion?*[3]

Mazmuni: *Seshem qabila qiz bu so'zlarni aytdi: yaxshi maxbus men sening istaginga o'ylab ham o'tirmasdan rozi bo'laman, ammo bu ehtiros bizni o'z domiga tortadi.*

Bu misolda bu ikkala qahramonning o'z his-tuyg'lariga yengilganliklarini ko'ramiz

Shatobrian o'zining «Nasroniylik daxosi» asarida bayon qilingan konsepsiyasiga muvofiq Atala obrazi bir-biriga qarama-qarshi his tuyg'ular, istak va intilishlar tug'yonida qolgan qiz timsolida talqin qilinadi.[4]

Misol: *Ma religion me separe de toi pour toujours...*[5].

Mazmuni :mening dinim meni sendan har doim ajratib turadi...

Shatobrian atala obrazini yaratar ekan insonning ichki, o'ta murakkab manaviy dunyosini ibtidoiy qarashlar bilan yo'g'rilgan va aqidalarni hissiyotlar to'qnashuvi sifatida tasvirlashga urindi.

Ayni paytda Shatobrianning o'zi xam insonning ko'p qirrali ruxiy turmush tarsi nasroniylik g'oyalarining extirolarga qarshi kurashidan iborat degan g'oyani ilgari surishi bilan izoxlanadi. Shaktas esa diniy aqidalar uning sevgilisini nobud qilganini bilgan paytdagidek xudoga o'qiydigan yigit emas. U butunlay «qayta tug'ilgan ». Sermuloxaza ruxoniy Obri yigitdagi daxriylikka doir barcha his-tuyg'ularni yo'qqa chiqarib, uni cherkov aqidalariga ko'ko'rona ishonadigan, itoatkor dindor yigitga aylantirgan. Povestda Shaktas va Atalalarning qalb iztiroblari yuz bergan xilma-xil, boy rang barang bokira tabiat manzaralari ichida kechadi..[6].

Misol: *j'aimois déjà comme le soleil* mazmuni quyoshday sevganman(7)

Muallif tabiatni ibtidoiy kuch-qudrati bilan tasvirlashga urinsa-da, bunda o'zining diniy tasavvurlariga rioya qiladi va bu orqalib tabiatning real obrazlari va ularga insoniy munosabatda biroz idealistik g'oyalarga tayanadi.

Misol :Tout etoit calme et superbe au desert. La cigogne crioit sur son nid, les bois retentissoient du chent monotone des cailles, du mugissement des bisons et du hennisementds cavales Siminoles.(8)

mazmuni: sahroda hamma joy sokin va g'ururli laylaklar inida qichqirar, bedanalar ovozi daraxtlar silkinishi bilan hamohang qo'shiqday yangra, to'tiqushi sayrar, bisonlar bo'kirishar Siminol yovvoyi otlari kishnar edi.

Un regard, tantot leve vers le ciel, tantot attaché a la terre une Oreille attentive au chant de l'oiseau, un geste vers le soleil couchant, une main tendrement srree.(9)

Mazmuni :birgina qarash dam osmonga qarab, dam yerga tikilib bir qulog'i qushlarning qo'shig'ida yana bir ko'rinishi uxlagan quyoshni, biri mehr bilan qisilgan qo'lni...

Bu misolda le ciel-osmon va la terre-yer o'z holidi ham ko'chma manosida ham bir biri bilan antonym so'zlar hisoblanadi.

Asarda antitezalali so'zlarni bir-biriga zid ma'noda ishlatilganligini yozuvchi bu so'zlardan mohironolik bilan foydalanganligin ko'rishimiz mumkin.

Misol :*la vie et le mort so'zlari hayot va o'lim* bir-biri bilan har doim zid so'zlardir.(10)

Xulosa o'rnida shuni aytilish kerakki, Shatobrianning deyarli barcha asarlarida dinning ahamyati o'z asarlarida o'z aksini topdi. Yozuvchi hayotida dinning ahamyati qanday bolgan degan savolga uning yozib qolgan asarlaridan ham bilsak bo'ladi. Asardagi qahramonlarning

hayotida yuz berayotgan voqea-hodisalar jamiyatdan ajralib qolishga, induvidlashuvlikka, taqdirning o'yiniga indamay ko'z yumib ketaveradigan insonlarga aylantirib qo'yganligini uchratamiz. Bunga esa yolg'iz qahromonlarning hayotga bo'lgan qiziqishlari so'nganligini yoki bo'lmasa faqat taqdir aybdor degan aybdor degan xulosaga kelish kerak emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atala; René// Chronologie et préf. par P. Reboul.-Paris: Carnier Flammarion, 1966.
2. Chateaubriand F - R. de. René; Constant B. Adolphe; Musset A. de. La Confession d'un enfant du siècle. -Moscou, 1973.
3. François René de Chateaubriand,Atala, René bruxelles, Berthot, Libraire, Marche aux bois 1816.
4. "René" de Chateaubriand: Un nouveau roman / Ed. du texte intégral et étude par P. Barbéris. - Paris: Larousse, 1973.
5. Chateaubriand. de F.-R. Préface de la première édition d' "Atala" // Chateaubriand. Atala. René -Paris, 1826, p.41;
Chateaubriand. de F.-R. Atala. -Paris: Granier-Flammarion, 1964, - p.149.
6. Ф.Шатобриан. Из "Гения христианства". // Лит-е манифесты. Изд. МГУ. М. 1980, стр. 392.
7. Jeoffroy M. Critique d'Atala // Chateaubriand. de F.-R. Œuvres complètes. -Paris, 1826, p. 348;
8. Jeoffroy M. Critique d'Atala // Chateaubriand. de F.-R. Œuvres complètes. -Paris, 1826, p. 348; 43;
9. АBBYY Lingvo x3; Electronic Multilingual Dictionary (Электронный ресурс).
10. АBBYY Software Ltd., 2009. - Режим доступа : www.lingvo.ru.
- 11.<https://www.cnrtl.fr/aide/amours>
12. АBBYY Lingvo x3; Electronic Multilingual Dictionary (Электронный ресурс).
- 13.Bayram Balci, Remi Dory,.Français-ouzbek dictionnaire, IFECA 2008.
- 14.Гак В.Г. Новый большой французско-русский фразеологический словарь. М.: Русский язык, 2005.